



TIBBIYOT MUASSASALARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR MOLIYAVIY NAZORATI

Ostonokulov A.A.

E-mail: ostonokulov@rambler.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekiston tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag‘lar moliyaviy nazoratini amalga oshirishning uslubiy muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif tomonidan tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag‘lar moliyaviy nazoratini tashkil etish bosqichlari, moliyaviy nazorat o‘tkazishning namunaviy umumiy rejasi va byudjetdan tashqari mablag‘lar moliyaviy nazoratini amalga oshirishning namunaviy tartibi tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: byudjetdan tashqari mablag‘lar, moliyaviy nazorat, g‘aznachilik, moliya organi, dastlabki nazorat, joriy nazorat, so‘ngi nazorat.

FINANCIAL CONTROL OF EXTRA-BUDGET FUNDS IN MEDICAL INSTITUTIONS

Annotation. This article is devoted to the methodological problems of implementing financial control of extra-budgetary funds in medical institutions of Uzbekistan, in which the author describes the stages of organizing financial control of extra-budgetary funds in medical institutions, a model general plan of financial control and a model procedure for financial control of extra-budgetary funds is recommended.

Key words: extrabudgetary funds, financial control, treasury, financial body, initial control, current control, final control.

KIRISH

Bugungi kunda tibbiyot muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanish jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo‘ysunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e’tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo‘li bilan byudjet va byudjetdan tashqari



mablag'lardan foydalanish qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining roli tubdan isloh etilmoqda.

Ma'lumki, hozirgi paytda respublikamiz tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazorati moliya organi, davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, g'aznachilik, ichki audit xizmati tomonidan qonunchilikda belgilangan muddat va tartiblar asosida amalga oshirilib kelinmoqda. Bugungi kunda respublikamizda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratini o'tkazish uslubiyatini takomillashtirish masalasi hozirgi kunga qadar bir butun, yaxlit ilmiy asar sifatida batafsil tadqiq etilmagan. Shuningdek, jahon amaliyotida moliyaviy nazorat tizimining tobora kengayib borayotganligi, unga bo'lgan talab-etiyolarning kuchayib borayotganligi va bu sohada fundamental tadqiqotlarning yetarli emasligi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratini rejalashtirish va o'tkazish uslubiyatini takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borish zaruriyatini taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratini o'tkazishning nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish hamda uni takomillashtirish bo'yicha xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular jumlasiga A.Arens, R.Adams, V.Bashkatov, V.Pokusaevlarni kiritish mumkin. Xorijlik olimlardan A.Arens, R.Adamslarning tadqiqotlarida byudjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini takomillashtirish masalalari o'rganilgan bo'lsa, V.Bashkatov va Yu.Pokusaevlar tomonidan esa, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha smetalar ijrosi hisobi va nazoratini tashkil etish xususiyatlari tadqiq etilgan.[3, 4]

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan bu masalalar yaratilayotgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalar, shuningdek, e'lon qilinayotgan ilmiy maqola va tezislarda qisman o'rganilgan. Masalan, A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayev S.U.Mehmonov, M.Ostanaqulov, B.Hamdamiyov, A.Ostonokulovlar tomonidan tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratining nazariy hamda uslubiy asoslarining ayrim jihatlari o'rganilgan. Jumladan, A.K.Ibragimov va B.B.Sugirbayevlarning tadqiqotlarida asosan byudjet tashkilotlarida byudjetdan moliyalashtirish jarayonining moliyaviy nazorati o'rganilgan bo'lib, qisman byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazorati jarayonining ayrim jihatlari bayon etilgan. [5]



M.Ostanakulovning ishlarida byudjet tashkilotlarining mablag'laridan maqsadli foydalanish borasida ularning hisobini yuritish va nazoratini o'tkazishning zarurligi asoslangan.[6] S.Mexmonovning ilmiy ishlarida esa, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larini to'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar, o'qitishning to'lov-kontrakt shakli mablag'lari, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotlarni shakllantirish tartibi keltirilgan.[7]

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan B.Hamdamiyov va A.Ostonokulov tomonidan byudjet tashkilotlarida byudjet nazoratining xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, unda byudjet tashkilotlarida nazorat ob'yektlari bo'yicha moliyaviy nazoratni tashkil etish, o'tkazish va tekshiruv natijalarini umumlashtirish masalalari batafsil yoritilgan.[8]

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi tadqiqotlarda mavzuga oid umumiy qarashlar keltirilgan bo'lsada, biroq, aynan tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratini o'tkazish masalasi alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti va yaxlit tizim sifatida tadqiq qilinmagan. Bu holat mazkur mavzuda kompleks ilmiy izlanishlar olib borish va tadqiqot vazifalarini belgilashni taqozo etmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish davlat byudjeti xarajatlarini kamaytirish va byudjet tashkilotlarining moddiy texnik bazasini mustahkamalash hamda xodimlarni moddiy rag'batlantirishning qo'shimcha manbai hisoblanadi. Shu sababdan, mazkur mavzuda ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarish hamda uning nazoratini takomillashtirish maqsadida, byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'ysunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas'uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo'li bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda.



Fikrimizcha, respublikamizda hozirgi paytda davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazorati quyidagi 1-jadvalda keltirilgan tartib va taomillar asosida tashkil etilib kelinmoqda.

1-jadval

Byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratini tashkil etish bosqichlari¹

Moliyaviy nazorat bosqichlari	Nazoratni amalga oshiruvchi organ	Nazorat vazifalari
Dastlabki nazorat	Moliya organi	Muassasa byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromad va xarajatlar smetasini tasdiqlangan byudjet tasnifining moddalariga muvofiqligi, smeta ko'rsatkichlarining asoslanganligi, to'g'ri va o'z muddatida tuzilganligini o'rganib, uni tasdiqlaydi
	G'aznachilik	Muassasa ma'lumotlari asosida unga bankdagi schyoti mablag'lari holati hamda muassasa daromad va xarajatlar smetasi bilan tanishib chiqadi.
Joriy nazorat	Moliya borgani	Qonunchilikda belgilangan muddatlarda muassasa moliyaviy hisobotlarining to'g'ri va asosli ma'lumotlarga muvofiq o'z muddatida tuzilganligini tekshirib, ularni qabul qiladi.
	G'aznachilik	<ul style="list-style-type: none"> - Xarajatlarni byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirilayotganda ularni tasdiqlangan smeta va normativ hujjatlarga muvofiqligini o'rganib, tegishli hujjatlar taqdim etilgandan keyingina G'aznachilik ruxsatnomalarini berish orqali boshqaradi; - Byudjetdan tashqari mablag'lar tushumini bankdagi yagona g'aznachilik schyotida saqlash orqali boshqaradi va ular chiqimini tegishli tasdiqlovchi hujjat(schyot-faktura, qaydnoma, chek, talabnoma-ariza)lar mavjudligi tekshirilgandan keyin amalga oshiradi; - Byudjetdan tashqari faoliyat bo'yicha majburiyatlarni boshqaradi; - To'lovlarni amalga oshirishdan oldin tegishli shartnoma va smeta hujjatlarining qonuniyligi va mavjudligini o'rganadi; - Byudjetdan tashqari mablag'lar hisob-kitobini yuritadi; - Muassasa byudjetdan tashqari mablag'larini g'aznachilik organining moliyaviy hisobotlarida umumlashtiradi va yuqori organlarga taqdim etadi.
So'nggi nazorat	Moliya organi	<ul style="list-style-type: none"> - Muassasalar tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining haqqoniyiligi, to'g'riligi va o'z muddatida umumlashtirilganligini tekshirish; - Muassasa byudjetdan tashqari mablag'larini moliya organining moliyaviy hisobotlarida umumlashtirish va yuqori organlarga taqdim etish.
	Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi	<ul style="list-style-type: none"> - Muassasa byudjetdan tashqari faoliyati bilan tanishish; - Ichki nazorat tizimini baholash; - Taftish dalillarini to'plash; - Taftish ob'ektlarini tanlash; - Taftish dasturini tayyorlash; - Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromad va xarajatlar smetasining to'g'riligi, qonuniyligi va o'z muddatida tayyorlanganligini tekshirish; - Byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha amalga oshirilgan

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.



		muomalalarning to'g'riligi va qonuniyligini aniqlash; - Byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha muomalalarni buxgalteriya schyotlarida to'g'ri va o'z muddatida hisobga olinganligini tekshirish; - Byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlarni belgilangan shakl va tartiblarga muvofiq to'g'ri va o'z muddatida tuzilganligini tekshirish; - Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha hisob ma'lumotlarini moliyaviy hisobotlarda to'g'ri va haqqoniy umumlashtirilganligini tekshirish; - Bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish, barcha oraliq va umumiy dalolatnomalarni tayyorlash; - Tekshiruv jarayonida aniqlangan qonunbuzilishlar, xato va kamchiliklarning jiddiyligini baholash va ularni kelgusida takrorlanmasligi yuzasidan tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish; - Tekshiruv natijalarini foydalanuvchilarga taqdim etish va h.k.
--	--	--

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tibbiyot muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari moliyaviy nazorati asosan davlat moliyaviy nazorat boshqarmalari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Chunki, moliya boshqarmasi va g'aznachilik organlari tomonidan qo'llaniladigan nazorat amallari davlat moliyaviy nazorat boshqarmalarining nazorati amalga oshirilishidan avval o'tkaziladi. Davlat moliyaviy nazorat boshqarmalari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarda esa, tegishli muomalalar amalga oshirilib bo'linganidan keyingi jarayonlar tekshiriladi. Bundan ko'rinadiki, byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazorati jarayonining asosiy ishlari muassasalarda iqtisodiy muomalalar amalga oshirilib bo'linganidan keyin bajariladi.

Bizningcha, tibbiyot muassasalarida moliyaviy nazoratni samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun, eng avvalo, tekshiruv jarayonining dastlabki bosqichi va unda bajariladigan nazorat amallarini aniqlashtirib olish lozim. Fikrimizcha, mazkur bosqich taftish o'tkazishni rejalashtirish bosqichi, deb nomlanib, bu bosqichda taftish o'tkazishning umumiy rejasini va dasturi tayyorlanishi lozim.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar tibbiyot muassasalarida aynan byudjetdan tashqari mablag'lar nazoratini amalga oshirishni tartibga soluvchi muayyan normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilmagan. Bu esa, amaliyotda tekshiruvlarni nazorat xodimlari tomonidan sub'ektiv yondashuvlar asosida amalga oshirilishi oqibatida sifatsiz o'tkazilishiga olib kelmoqda. Fikrimizcha, tibbiyot muassasalarida o'tkaziladigan nazorat-taftish ishlarini rejalashtirish chog'ida nazorat-taftish boshqarmasi tomonidan qo'llaniladigan aniq me'yorlarni ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Rejalashtirish nazorat-taftish o'tkazishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, taftishchilar reja tuzulgunga qadar bevosita tekshiruv jarayonini boshlamasliklari



lozim. Fikrimizcha, yuqoridagi standartga muvofiq nazorat-taftish ishlarini rejalashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

- a) taftishni dastlabki rejalashtirish;
- b) taftishning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish;
- v) taftish dasturini tayyorlash.

Bizningcha, moliyaviy nazorat jarayonida tekshiruvning umumiy rejasi tuzilganidan so'ng taftish dasturi tuzilib, unda barcha taftish amallarining batafsil ro'yxati bayon qilinishi maqsadga muvofiq.

Dastur nazorat-taftish xodimlari uchun batafsil yo'riqnoma bo'lib, unda tekshirilishi lozim bo'lgan buxgalteriya hisobining barcha bo'limlarini tekshirish, shuningdek ichki nazorat tizimini tahlil qilish bo'yicha ularning barcha hatti-harakatlari aks ettirilgan bo'lishi lozim. Fikrimizcha, yuqorida tavsiya etilgan byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratning namunaviy umumiy rejasidan davlat moliyaviy nazorat boshqarmalari faoliyatida qo'llanilishi, tekshiruvlarni belgilangan qisqa muddatlarda tugatilishiga, nazorat ishlariga sarflanadigan vaqtni tejash, nazorat-taftish xodimlarini tekshiruvga bo'lgan javobgarligini oshirish hamda ular ish sifatini boshqarish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Bizningcha, byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazorat bosqichlarini to'g'ri belgilash, uning o'tkazish sifati va samaradorligini oshirishning kafolatidir. Shu boisdan, tekshiruvni o'tkazish bosqichlarini yanada aniqroq va batafsilroq ifodalash dolzarb ahamiyatga egadir. Fikrimizcha, byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratni o'tkazish asosan uch bosqichdan iborat bo'lishi lozim:

- dastlabki tayyorgarlik bosqichi;
- tekshirish bosqichi;
- tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash bosqichi.

Bizningcha, hozirgi paytda byudjet muassasalarida moliyaviy nazoratni tashkil etish va o'tkazishni tartibga solish bo'yicha ko'plab me'yoriy - huquqiy hujjatlar yoki adabiyotlar ishlab chiqilgan bo'lsada, ularda asosan nazorat-taftish ishlarini tashkil etish va o'tkazishga umumiy jihatdan yondashilib, moliyaviy nazoratni amalga oshirish bosqichlari yoki tekshiruvda bajariladigan nazorat amallari aniq va batafsil holatda yoki to'liq yoritib berilmagan.

O'z navbatida, fikrimizcha, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki moliyaviy nazoratning yuqoridagi bosqichlarini sifatli va samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun esa, uni o'tkazish uslubiyatini takomillashtirish talab etiladi. Jumladan, bizningcha, bugungi kunda byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratining bunday uslubiy masalalari tarkibiga buxgalteriya hisobi va moliyaviy



nazorat faoliyatining milliy va xalqaro standartlari talablarining amaliyotda talab darajasida qo'llanilmayotganligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va respublikamiz hamda xorij olimlari ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy nazorat bosqichlarining uslubiy jihatlari to'liq va aniq bayon etilmaganligi, tekshiruv natijalarini hujjatlarda umumlashtirish, baholash va taqdim etish uslubiyatining murakkabligi, nazorat-taftish xodimi ish sifatini nazorat qilish va davlat moliyaviy nazorat boshqarmalari faoliyati samaradorligini baholash uslubiyatini xalqaro standartlar talablari darajasida ishlab chiqilmaganligi, aksariyat moliyaviy nazorat boshqarmalari faoliyati amaldagi sohaga oid me'yoriy hujjatlar va xalqaro standartlar hamda ilg'or xorij tajribasi talablaridan orqada qolayotganligi aniqlandi.

Firimizcha, tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratini sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun quyidagi bosqichlar va ularda bajariladigan amallar orqali o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Bizningcha, yuqorida keltirilgan tartib va shakllarga asosan muassasalarda nazorat-taftish ishlari tashkil etilib, tekshiruvlar belgilangan ketma-ketlikda amalga oshirilsa, tekshiruv jarayonida nazorat xodimlari tomonidan yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklar kamayadi. Bu esa, tekshiruvlarning sifati hamda samarasi oshishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratini o'tkazish uslubiyati bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda yagona tartib-qoidalarni mavjud emasligi, mavjud o'quv adabiyotlari va ilmiy tadqiqot ishlarida moliyaviy nazoratning mazkur ob'ektini amalga oshirishning tartibi yoki tekshirish uslubiyati to'liq va aniq tarzda bayon etilmaganligini ta'kidlash joiz.

Bizningcha, yuqoridagilarni umumlashtirgan holda tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish davr talabi hisoblanadi:

Birinchidan, tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratini rejalashtirish uslubiyatining amaldagi holatini chuqur tadqiq etish va takomillashtirish. Buning uchun mazkur bosqichda bajariladigan nazorat amallarining mazmun-mohiyatini ochib berish va amaldagi auditga oid normativ-huquqiy hujjatlarga nazoratni amalga oshirish bo'yicha aniq va yagona mazmundagi tartib-qoidalarni kiritish.

Ikkinchidan, tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratining umumiy rejasi va dasturini tayyorlash hamda undan foydalanishning



ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan uslubiyatini ishlab chiqish. Buning uchun umumiy reja va dasturning shakl va mazmunini xalqaro standartlar hamda auditorlik amaliyoti talablariga muvofiq holda tayyorlash talab etiladi.

Uchinchidan, tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazoratini o'tkazish bosqichlarini xalqaro standartlar va xorij tajribasi talablariga muvofiqlashtirish hamda moliyaviy nazorat o'tkazish uslubiyatini takomillashtirish.

To'rtinchidan, tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazorati natijalarini umumlashtirish, baholash va hujjatlashtirish jaryonini xalqaro standartlar va milliy qonunchilik amaliyoti talablari hamda xususiyatlariga muvofiq takomillashtirish. Buning uchun moliyaviy nazorat jarayonida tuziladigan ish hujjatlarni tayyorlash, tekshiruv natijasida aniqlangan xato yoki qoidabuzarliklarni kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda ularni kelgusida takrorlanmasligi yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazorati natijalarini hujjatlashtirish va tekshiruv yakunida tuziladigan oraliq ish hujjatlarining qat'iy shakl hamda mazmunini belgilash bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, uslubiy ko'rsatmalar va o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish va keng miqyosda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish talab etiladi.

Fikrimizcha, tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazorati bosqichlari bo'yicha yuqorida keltirilgan uslubiy muammolarni ilmiy va amaliy jihatdan bartaraf etish orqali tekshiruvlarni tashkil etilishi, tekshiruv bosqichlarini oldindan tuzilgan puxta va aniq rejaga muvofiq, muayyan ketma-ketlik tartibida amalga oshirilishi, pirovardida tekshiruvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolarni kamaytirib, moliyaviy nazoratni sifatli amalga oshirish kafolati bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PQ3231-son qarori
2. Подольский В.И., Савина А.А., Сотникова Л.В. Международные и внутрифирменные стандарты аудиторской деятельности: учеб. пособие М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2010. 288 с.
3. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. -М.: Финансы и статистика, 2013. -560 с;



4. Башкатов В.В., Покусаев В.Ю. Особенности бухгалтерского учета в бюджетных учреждениях. Журнал “Современная наука: актуальные проблемы и пути их решения”. Выпуск № 13 / 2014. 320 с.
5. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi. O‘quv qo‘llanma. infoCOM.Uz MChJ nashryoti. Toshkent -2010 – 192 b.
6. Ostonaqulov M. Byudjet tashkilotlarida yangi buxgalteriya hisobi. Qo‘llanma. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2011. 480 b. 237-bet
7. Mehmonov S.U. va boshqalar. “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi”. Darslik. – Toshkent, “Sano-standart”, 2013. 456 b. 334-bet
8. Hamdamov, B. K., & Ostonokulov, A. A. (2018). Byudjet nazorati. O‘quv qo‘llanma. T.:“Iqtisod–Moliya”,–318 b.